O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 821.512.133-131.09

Ilhom A. SAYITQULOV,
PhD, dotsent, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: ilhom.sayitqulov86@gmail.com, ORCID: 0009-0003-9468-8538

Dotsent A.Tilavov taqrizi asosida

“XOLDORXON” DOSTONIDA JANG EPIZODLARINING SYUJET-KOMPOZITSION POETIKASI

Annotatsiya

Maqolada “Xoldorxon” dostonidagi jang epizodlarining syujet-kompozitsion qurilishi va badiiy vazifalari tadqiq etilgan. 146 ta jangga aloqador epizod to‘qqiz guruhga ajratilgan, jang tasviri bosqichlarining kompozitsion modeli taklif etilgan. Qrim, Chambil va qirg‘iz eli bilan bog‘liq uch syujet chizig‘i ikki frontli kompozitsion tizimni hosil qilishi asoslangan. Shuningdek, bayon sur’atini sekinlashtirish, epik takror va xabar motivlarining vazifalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Xoldorxon”, jangnoma doston, syujet, kompozitsiya, jang epizodi, epik motiv, bayon sur’atini sekinlashtirish, yakkama-yakka olishuv, ikki frontli kompozitsiya, qiyosiy poetika.

PLOT AND COMPOSITIONAL POETICS OF BATTLE EPISODES IN THE DASTAN “KHOLDORKHON”

Annotation

The article examines the plot and compositional structure of battle episodes in the Uzbek folk dastan “Kholdorkhon”. The 146 episodes identified in the text are grouped into nine functional categories, and a compositional model of the battle scene is proposed. The three plot lines connected with Crimea, Chambil and the Kyrgyz land form a two-front compositional system. The functions of retardation, epic repetition and the motifs of news and letters are also revealed.

Key words: “Kholdorkhon”, jangnoma dastan, plot, composition, battle episode, epic motif, retardation, single combat, two-front composition, comparative poetics.

СЮЖЕТНО-КОМПОЗИЦИОННАЯ ПОЭТИКА БОЕВЫХ ЭПИЗОДОВ В ДАСТАНЕ «ХОЛДОРХОН»

Аннотация

В статье исследуются сюжетно-композиционное строение и художественные функции боевых эпизодов в узбекском народном дастане «Холдорхон». 146 эпизодов распределены по девяти группам, предложена композиционная модель боевой сцены. Сюжетные линии, связанные с Крымом, Чамбилом и киргизским народом, образуют двухфронтовую композиционную систему. Раскрыты функции ретардации, эпического повтора и мотивов вести и письма.

Ключевые слова: «Холдорхон», дастан-джангнаме, сюжет, композиция, боевой эпизод, эпический мотив, ретардация, единоборство, двухфронтовая композиция, сравнительная поэтика.

Kirish. O‘zbek xalq dostonchiligida jang tasvirlari epik voqelikni shakllantiruvchi muhim badiiy unsurdir. Jangnoma dostonlarda harbiy to‘qnashuvlar syujet harakatini tashkil etish va personajlar munosabatini ochishga xizmat qiladi, shu sababli jang epizodlarini o‘zaro bog‘langan kompozitsion tizim sifatida o‘rganish muhimdir. Qahramonlik dostonlarida yakkama-yakka olishuv markaziy o‘rinda bo‘lsa, jangnomalarda qo‘shinlar to‘qnashuvi, sarkardalar faoliyati, elchilik, mudofaa va sulh kabi epizodlar syujetning tarkibiy qismiga aylanadi.

V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov qahramonlik dostonlari bilan jangovar qissalar o‘rtasidagi farqlarni o‘rgangan [4]. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li repertuaridagi “Xoldorxon” dostoni shu jihatdan muhim obyektdir: unda Go‘ro‘g‘li va safdoshlarining yurishlari, Qrimdagi janglar, Chambil mudofaasi va qirg‘iz elidagi to‘qnashuvlar murakkab syujet tizimini hosil qiladi. Maqolaning maqsadi jang epizodlarining tasnifini ishlab chiqish va ko‘p chiziqli syujetdagi vazifalarini ochishdir.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijrosidagi “Xoldorxon” dostoni matniga asoslangan [1]. Tuzilmaviy-vazifaviy, tipologik, qiyosiy-tarixiy va poetik tahlil usullari qo‘llanildi. Epizodlarni ajratishda faqat qurolli to‘qnashuvlar emas, balki ularni tayyorlovchi, rivojlantiruvchi va yakunlovchi voqealar – qo‘shin yig‘ish, raqibni chaqirish, ruxsat so‘rash, elchilik, g‘alabani e’tirof etish va jangdan keyingi marosimlar ham hisobga olindi. Natijada matnda jang bilan bog‘liq 146 ta epizod ajratilib, to‘qqiz guruhga birlashtirildi.

Natijalar va muhokama. Jang epizodlarining vazifaviy tasnifi.

Dostonda jang bilan bog‘liq voqealarning bir qismi harbiy to‘qnashuvni tasvirlasa, boshqa qismi jangning kelib chiqishi, tayyorgarligi, ishtirokchilar munosabati va natijasini ifodalaydi. Bu jang epizodining keng qamrovli syujet-kompozitsion birlik ekanini ko‘rsatadi.

1-jadval. “Xoldorxon” dostonida jang epizodlarining funksional tasnifi

№	Epizodlar guruhi	Soni
1.	Jangga tayyorgarlik va harbiy yurish	12
2.	Maydonga chiqish va ruxsat munosabatlari	10
3.	Jang turlari va harbiy to‘qnashuvlar	29
4.	Bahodirlikni namoyish etish	19
5.	Jang davomidagi nutq, maslahat va taktik harakatlar	29
6.	G‘alaba, mag‘lubiyat va ularning e’tirofi	21

№	Epizodlar guruhi	Soni
7.	Jang ishtirokchilarining ruhiy holati	6
8.	Elchilik, xabar va sulh munosabatlari	10
9.	Jangdan keyingi voqealar	10
	Jami	46

Eng ko‘p uchraydigan guruhlar – jang turlari va jang davomidagi nutqiy-taktik harakatlar (har biri 29 ta). Bu jang tasvirining harakat va nutq birligiga asoslanganini anglatadi. Dostonda harbiy harakatlar ko‘pincha so‘z orqali tayyorlanadi, boshqariladi va baholanadi: raqibni chaqirish, o‘z kuchiga ishonch bildirish, sarkardadan ruxsat so‘rash, maslahatlashuv, raqib mardligini tan olish voqealar rivojining faol unsurlaridir. Shu sababli nutqiy epizodlarni olishuvlardan ajratib o‘rganish ularning kompozitsion vazifasini to‘liq ochmaydi.

Bahodirlikni namoyish etishga oid 19 ta epizod qahramonning jismoniy imkoniyati, harbiy mahorati va mardligini turli vaziyatlarda ochadi; bahodirlik faqat raqibni yengish bilan emas, uning kuchini tan olish, odob qoidalariga rioya qilish va intizomni saqlash orqali ham namoyon bo‘ladi. G‘alaba va mag‘lubiyatga oid 21 ta epizod harbiy natijaning dostonda alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘lja olish motivi esa cheklangan: u faqat qirg‘izlarning Ahmad sardor qo‘shini ustidan g‘alabasi epizodida uchraydi [1]. Demak, g‘alabaning badiiy qiymati moddiy manfaatdan ko‘ra mardlik, sha’n va adolat tushunchalari bilan bog‘langan. Tayyorgarlik, elchilik va jangdan keyingi voqealarning mustaqil guruh sifatida ajralishi harbiy konfliktning keng kompozitsion chegaralarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Jang epizodlarining kompozitsion tuzilishi.

Jang voqealari takrorlanuvchi kompozitsion tartibga asoslanadi. Doston matni tahlili asosida jang epizodining o‘n bosqichli modelini ajratish mumkin:

tayyorgarlik va yurish → qorovullar to‘qnashuvi → maydon va rasm-rusumlar → mard talab qilish → ruxsat so‘rash → lof va dialog → yakkama-yakka olishuv → bahodirning qo‘shinga qarshi jangi → ommaviy jang → omonlik va sulh

Model har bir sahnada to‘liq namoyon bo‘lmaydi: bosqichlar qisqarishi, tushib qolishi yoki takrorlanishi mumkin. Ammo ularning umumiy vazifasi – jangni tayyorlash, konfliktni kuchaytirish, to‘qnashuvni tasvirlash va natijani badiiy yakunlashdir.

Jangga tayyorgarlik va harbiy yurish kelgusi to‘qnashuvning ko‘lamini belgilaydi: Go‘ro‘g‘lining Taka va Yovmit elidan lashkar to‘plashi, Qaysar shohning Qrimga yurishi bunga misol bo‘ladi [1]. Qorovullar to‘qnashuvi jangdan oldingi dastlabki konflikt bo‘lib, raqibning qudrati va bahodirlarini tanishtiradi: Alla botir, Tilla botir, Pilla botir, Dumaloq va To‘mpoq bahodirlar aynan shu yerda tilga olinadi. Maydonni tayyorlash va rasm-rusumlar (maydonga suv sepish, polvonlarning qurol mahorati) jangni tartib-qoidaga bo‘ysunuvchi epik voqeaga aylantiradi; Qaysar shohning qalqonbozlik, nayzabozlik va qilichbozlik mahorati bu marosimning badiiy ifodasidir [1].

Mard talab qilish motivida polvon raqibini olishuvga chorlaydi; chaqiriq ko‘pincha nazmiy, takror va refrenli shaklda beriladi. Xoldorxonning polvoni Qubodning chaqirig‘i:

Botir bo‘lsang, maydonga kel,
Otim Qubod, polvonga kel,
Bir tarafsiz arslonga kel,
Kel, botirlar, yakka-yakka! [1]

Takrorlangan “kel” fe’li chaqiriqning hissiy ta’sirini kuchaytiradi, yakuniy misra esa yakkama-yakka olishuv talabini bevosita ifodalaydi. Chaqiriq jangni boshlash vositasi bo‘lish bilan birga, personajning o‘zini taqdim etish usuli hamdir: “arslon”, “sohibqiron” kabi sifatlar uning epik maqomini yuksaltiradi. “Sohibqiron” atamasi tarixiy-yozma an’anada hukmdorni ifodalasa, og‘zaki epik ijroda bahodirning kuch-qudratini bildiruvchi poetik sifatga aylanadi; bu atamaning mazmunini “Temurnoma”dagi tadqiqotlar bilan qiyoslash mumkin [2; 3].

Mard talabdan keyin ruxsat so‘rash bosqichi keladi: bahodir maydonga chiqishdan avval sarkarda yoki ustoz maqomidagi personajdan ruxsat va fotiha oladi. Avazxonning Go‘ro‘g‘liga murojaati:

Arila bilmadi tog‘larning qori,
Tirama pishadi bog‘ning anori.
Ota, sizdan bukun ruxsat tilayman,
Omin, deb qo‘l ko‘tar, Chambil sardori. [1]

Bu sahna oddiy harbiy tartib emas, balki ota va farzand, sarkarda va bahodir o‘rtasidagi ma’naviy munosabatni ifodalaydi; oq fotiha tilash motivining takrori uning marosimiy xususiyatini kuchaytiradi. Ruxsat so‘rash jang jarayonidagi ierarxik munosabatlarni ham ochadi: bahodirning maydonga chiqishi sarkardaning irodasiga bog‘liq, shu tariqa jasorat jamoaviy intizom bilan muvofiqlashtiriladi.

Lof va dialog bosqichi jangning ruhiy tayyorgarligi bo‘lib, raqiblarning so‘z bellashuvi ularning jismoniy to‘qnashuvidan oldingi ma’naviy qarama-qarshiligini ifodalaydi. Hasan ko‘lbarning raqibiga murojaati:

Iyartib kel lashkaringni,
Hammangizga yolg‘iz o‘zim [1]

Bu giperbolik tasvir bir bahodirning butun qo‘shinga qarshi turishga tayyorligini ko‘rsatadi va qahramonlik eposiga xos favqulodda qudrat tasavvurini ifodalaydi. Lof faqat qo‘rqitish vazifasini bajarmaydi: u qahramonning o‘z kuchiga ishonchini va olishuvning kelgusi natijasiga doir epik kutilmani shakllantiradi.

Yakkama-yakka olishuv jang epizodining markaziy bosqichidir: raqib halok bo‘lishi, asirga tushishi yoki kuchlar tengligi bilan yakunlanishi mumkin. Hasan ko‘lbar Tumaloq polvonni asir olib, uning aldoviga ishonib qo‘yib yuboradi; bu natija keyingi syujetga ta’sir qiladi. Beksara bilan Qaysar shoh o‘rtasidagi olishuvda esa raqib kuchini tan olish motivi ustuvor. Demak, olishuv faqat g‘olib va mag‘lubni aniqlamaydi, personajlarning axloqiy qiyofasini ham ochadi [1].

Olishuvdan so‘ng bir bahodirning butun qo‘shinga qarshi jangi tasvirlanadi. Hasan ko‘lbarning jangi quyidagi misralar bilan yakunlanadi:

Maydonda er qolmadi,
Bo‘lmasa Hasan tolmadi [1]

Ommaviy jang bosqichida tasvir markazi alohida qahramondan qo‘shinlar harakatiga ko‘chadi:

Qo‘shin keldi o‘nggi-chaplar,
Vayron-vayron bo‘ldi saflar,
Ajdarhoday katta to‘plar
Ishqirdi maydon ichinda [1]

“Vayron-vayron” takrori saflarning parchalanishini kuchaytiradi, to‘plarning ajdarhoga qiyoslanishi esa jang manzarasiga afsonaviy-badiiy tus beradi. Yakuniy bosqichda omonlik so‘raladi, mag‘lub tomon taslim bo‘ladi, sovg‘a-salomlar, mehmondorchilik va xayrlashuv bo‘ladi. Shunday qilib, jang epizodi tayyorgarlikdan boshlanib, harbiy to‘qnashuv va uning ijtimoiy-axloqiy natijalari bilan yakunlanadigan kompozitsion butunlikka aylanadi.

Bayon sur’atini sekinlashtirish va epik takrorning vazifasi.

Asosiy to‘qnashuv bir necha tayyorlovchi bosqich orqali kechiktiriladi: maydonni tayyorlash, raqibni chaqirish, ruxsat so‘rash, fotiha olish va so‘z bellashuvi qurolli

to‘qnashuvdan oldin keladi. Bu epik bayonda bayon sur’atini sekinlashtirish usulining namoyon bo‘lishidir: u tinglovchining kutish holatini kuchaytiradi, baxshiga esa personajlarni ochish va jangning hissiy ta’sirini oshirish imkonini beradi. Bu ikki asosiy ko‘rinishda uchraydi. Birinchisi – bir olishuv tugagach maydonga yangi raqib chiqishi, natijada olishuvlar zanjiri hosil bo‘lishi. Ikkinchisi – jang bir necha kun davom etib, har kuni marosimiy bosqichlarning (maydonni tayyorlash, bahodirlarning chiqishi) takrorlanishi.

Bu takrorlar syujetni sun’iy cho‘zish emas, og‘zaki epik ijroning kompozitsion imkoniyatidir: takrorlanuvchi bosqichlar barqarorlik beradi, har bir yangi raqib esa syujetga o‘zgarish olib kiradi. Demak, bayon sur’atini sekinlashtirishni faqat vaqtni kechiktirish usuli deb bo‘lmaydi: u personajning epik maqomini oshiradi, jang natijasining ahamiyatini kuchaytiradi va konfliktni ko‘p bosqichli voqea sifatida tashkil etadi.

Ikki frontli kompozitsiya va yonma-yon rivojlanuvchi syujet chiziqlari.

Dostonda harbiy konflikt uch syujet chizig‘i orqali ifodalanadi: Qrimdagi hujum janglari, Chambil mudofaasi va qirg‘iz elining Ahmad sardor qo‘shiniga qarshi kurashi. Qrim chizig‘ida Go‘ro‘g‘li va bahodirlarning yurishi, Qaysar shoh ishtirokidagi janglar va yarashuv tasvirlanadi, ustuvor motiv – hujum va g‘alaba. Chambil chizig‘i mudofaa xususiyatiga ega: qamal, himoyachilarning halok bo‘lishi va yurtning vaqtincha qo‘ldan ketishi asosiy o‘rinda. Qirg‘iz elidagi voqealar Chambil konfliktining davomi bo‘lib, qarshilik, maslahatlashuv va haqsizlikka qarshi kurash motivlari ustuvor.

Shu asosda uch chiziqni ikki yirik kompozitsion frontga birlashtirish mumkin: birinchi front – Qrimdagi hujum janglari, ikkinchi front – Chambil va qirg‘iz eli bilan bog‘liq mudofaa voqealari. Bu tuzilish hujum va mudofaa motivlarining bir vaqtda rivojlanishini ta’minlaydi: Qrimda Go‘ro‘g‘li tashabbusni qo‘lga olgan bo‘lsa, Chambilda ularning yo‘qligi xavfli vaziyat yaratadi. Bir makonda g‘alabaga intilish tasvirlanganda, boshqa makonda yurt taqdiri xavf ostida qoladi.

Chambil mudofaasida Yunus va Misqol parilarning qirq yigit xotinlari bilan jangga kirishi alohida ahamiyatga ega: ular erkaklar libosini kiyib, qurol oladi [1]. Bu epizodda ayol personajlar an’anaviy maishiy doiradan chiqib, yurt himoyasida faol qahramonga aylanadi. Parilarning Mirza Askar halok bo‘lganini dushmandan yashirishga intilishi esa mudofaa sharoitida harbiy hiyla motivining qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Qirg‘iz elidagi chiziqda axloqiy jihat yanada yaqqol: qirg‘iz biylarining urushga qarshi maslahati va Xidirali boyning Ahmad sardor talablariga munosabati jangni kuchlar to‘qnashuvi emas, adolat va haqsizlik o‘rtasidagi ziddiyat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Hodi Zarifning baxshilar ijodidagi urushga va xalqparvarlikka oid qarashlari bu epizodning g‘oyaviy mazmunini tushunishda muhim [7]. Shunday qilib, Qrimda bahodirlik va g‘alaba, Chambilda fidoyilik va mudofaa, qirg‘iz elida adolat va qarshilik motivlari yetakchilik qiladi; ularning bir syujetda birlashuvi dostonning g‘oyaviy-badiiy qamrovini kengaytiradi.

Xabar va maktub motivlarining kompozitsion vazifasi.

Ko‘p chiziqli syujetda alohida makonlardagi voqealarni bog‘lash muhim vazifadir. Dostonda bu vazifani asosan elchilik, xabar yetkazish va maktub motivlari bajaradi: Xoldorxonning muhlat so‘rab Go‘ro‘g‘liga elchi yuborishi, Qaysar shohdan yordam so‘rashi, Yunus parining xabar yo‘llashi va Go‘ro‘g‘lining Hasan chopsonni Chambil tomonga jo‘natishi chiziqlar aloqasini ta’minlaydi [1]. Xabar yoki maktub ko‘pincha yangi yo‘nalishning boshlanishiga sabab bo‘ladi: bir makondagi ma’lumot ikkinchisidagi personajlarni harakatga keltiradi. Shu jihatdan xabar motivi syujet harakatini boshqaruvchi kompozitsion mexanizmdir.

Muhlat motivi ayniqsa muhim: Qrimdagi janglar vaqtincha to‘xtaydi, bayon Chambil va qirg‘iz eli voqealariga o‘tadi; muhlat tugagach, voqealar Qrimga qaytadi. Shunday qilib, bir makondagi voqealarning to‘xtatilishi ikkinchisini batafsil tasvirlash imkonini beradi va voqealarni navbatma-navbat bayon qilish usuli shakllanadi.

Qiyosiy-poetik xususiyatlar.

Jang epizodlarining kompozitsiyasini to‘liq anglash uchun ularni qahramonlik eposi va turkiy yozma jangnomalar bilan qiyoslash zarur. V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov yakkama-yakka olishuv va yirik qo‘shinlar to‘qnashuvining janriy vazifalariga e’tibor qaratganlar [4]. “Alpomish” kabi qahramonlik dostonlarida yakkama-yakka olishuv qahramonning kuch-qudratini ko‘rsatuvchi asosiy vaziyatlardan biri bo‘lsa, jangnomalarda ommaviy to‘qnashuvlar muhim o‘rin tutadi. “Xoldorxon”da esa bu ikki tamoyil bir-birini inkor etmaydi: yakkama-yakka olishuvlar ommaviy janglar tarkibida saqlanib qolgan, ko‘p hollarda avval bahodirlar o‘rtasida olishuv bo‘lib, keyin harbiy to‘qnashuv keng ko‘lam oladi.

Turkiy yozma jangnomalarda ham bu o‘zaro aloqa kuzatiladi: N.Demir va M.D.Erdemning Battol G‘oziy dostoni bo‘yicha tadqiqoti [5] va Tiryaki Hasan posho g‘azavotnomasi [6] shunga misol bo‘la oladi. “Xoldorxon”da Chambil mudofaasi umumiy jangnoma syujetining ikkinchi yirik fronti sifatida namoyon bo‘lib, hujum va mudofaaning birlashishiga olib keladi. Bu birlashuvning badiiy natijasi shuki, g‘alaba va mag‘lubiyat turli makonlarda bir vaqtda kechadigan voqealar sifatida tasvirlanadi. Qahramonning tashqi dushman ustidan g‘alabasi yurt xavfsizligi muammosini o‘z-o‘zidan hal qilmaydi; shu tariqa ikki frontli kompozitsiya harbiy qudrat, mas’uliyat, yurt himoyasi va adolat tushunchalarini o‘zaro munosabatda ochadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, yakkama-yakka olishuv, ommaviy to‘qnashuv va nutqiy-marosimiy bosqichlar “Xoldorxon”da uyg‘unlashgan.

Xulosa. Birinchidan, jang epizodlari tasodifiy voqealar yig‘indisi emas, balki vazifaviy tizim bo‘lib, harakat, nutq, axloqiy baho va yakunlovchi voqealarni birlashtiradi. Ikkinchidan, harbiy to‘qnashuv harakat va so‘z birligiga asoslanadi; mard talab qilish, ruxsat so‘rash va lof kompozitsion rivojning muhim vositasidir.

Uchinchidan, o‘n bosqichli model jang epizodining umumiy tuzilmasini beradi. To‘rtinchidan, bayon sur’atini sekinlashtirish va takror konfliktni davriy rivojlantiradi.

Beshinchidan, uch syujet chizig‘i ikki frontli tizimni shakllantiradi. Oltinchidan, xabar, maktub, elchilik va muhlat motivlari chiziqlarni bog‘lab, makon va vaqtni muvofiqlashtiradi.

Umuman, “Xoldorxon” dostonida jang epizodlari epik voqelikni tashkil etish, personajlar munosabatini ochish va g‘oyaviy-badiiy yaxlitlikni ta’minlash vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Xoldorxon / Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li; yozib oluvchilar: Hodi Zarif va shoirning o‘zi; nashrga tayyorlovchilar: M. Jo‘rayev, Z. Yo‘ldosheva // O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. – Toshkent, 2024.
2. Sayitqulov I.A. O‘zbek xalq tarixiy nasrida epik syujet va obraz evolyutsiyasi (“Temurnoma” misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Sayitqulov I. “Temurnoma”da sohibqironlik tasavvuri talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2020. – № 3. – B. 54–58.
4. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947.
5. Demir N., Erdem M.D. Türk Kültüründe Destan ve Battal Gazi Destanı // Turkish Studies. – 2006. – Vol. 1/1. – P. 106–159.
6. Şenlik A.Ş. Tiryâkî Hasan Paşa Gazavâtnâmesi ve Bazı Filolojik Notlar. – Ankara: TÜBA, 2017.
7. Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent, 2013.
8. Sayitkulov I. A. Usage of term folklore books in folklore studies and development of Temurnoma (“Life of Timur”). Theoretical & Applied Science, 2019. (8), 7-10.